

FANDA XIV ASRNING 2-YARMI VA XV ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHR SIYOSIY ELITASI MASALASINING O'RGANILISHI.

Odilbek Karimov Raximjonovich

Ichki Ishlar Vazirligi Farg'ona
akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIV asrning 2-yarmi va XV asr boshlarida Movarounnnahrning siyosiy siyosiy vaziyatga ta'sir ko'rsatgan siyosiy qatlam vakillari, ularning ushbu jarayonlarga munosabatlari hamda ushbu voqealarda ishtirok etgan elita qatlamning kelib chiqishiga qisman e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Qoraunas, barlos, qabila, yasavuriy, amir Qazag'an, amir Husayn, Bayon Sulduz, siyosiy elita, orlot.

Buyuk bobomiz Amir Temurning hayoti, ayniqsa, davlatchilik siyosati va sarkardalik faoliyati paytida amalga oshirgan ulug' ishlarini o'rganishga mamlakatimizda katta e'tibor berilmoqda. Xalqimiz bosib o'tgan yo'lni, ma'naviyatimiz, adabiyotimiz tarixiga oltin sahifalar bilan bitib ketgan XIV-XV asrlarda yashagan buyuk siymolarni tushunishda, mo'tabar ajdodlarimizning hayoti va amalga oshirgan ishlarini o'rganish, hayotiga, shaxsiyatiga sinchkov nazar solish ahlohida ahamiyat kasb etadi.

Sohibqiron Amir Temurning 35 yillik hukmronlik davri o'zbek davlatchilik tarixida eng muhim va shonli davrlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Amir Temur shaxsi va uning faoliyatiga qiziqish olimlar tomonidan XVI asrdan boshlangan va bugungi kunda ham ko'pchilikni o'ziga jalb etib kelmoqda. Bugungi kunda dunyo va mamlakatimizda Amir Temur davri tarixiga oid ko'plab ilmiy asarlar, tadqiqotlar yaratilgan. Ularda Sohobqironning davlat, ijtimoiy-siyosiy qurilishi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mamuriy tizim, harbiy yurishlar, diplomatiya, din, fan, madaniyat, sanat sohalaridagi ko'p qirrali faoliyati yoritilgan. O'rta Osiyoning arablar fath etga davridan to Muhammad Shayboniyxonning temuriylar saltanati o'rniga o'z davlatini tashkil etishgacha bo'lgan davri tarixia oid tarixiy asarlardan biri venger olimi Herman

Vamberi qalamiga mansub “Buxoro yohud Movarounnahr tarixi” asaridir¹. Asarda asosan, Amir Temurning siyosiy, harbiy hamda bunyodkorlik faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar ilgari surilgan. Amir Temurning hukmronligi, uning harbiy faoliyati davridagi siyosiy elita vakillari haqida deyarli tilga olinmagan bo’lsa ham, ayrim o’rinlarda ba’zi amir hamda beklarning nomlari keltirilganligini ko’rishimiz mumkin. Xususan, uning bayrog’i ositdagi qo’shinning barcha janglarida qahramonlik namunasini ko’rsatgan Jahongir Barlos, Oqbug’a, Usmon Abbos, Muhammad Sultonshoh, Qamariy, Tibon Bahodir, Urusbug’a, Pirhusayn Barlos, Hamza, Amir Murizoda, Muhamad Qazon, Sariq Atka va Muzaffar Uchqora kabi amirlarning nomlari ketirilgan². Shuningdek, Amir Husaynga qarshi kurashda g’alabaga erishgandan so’ng chaqirilgan qurultoyda Amir Temurning yoshlikdagi quroldoshlari va avvalgi dushmanlari hozir bo’lganligi, ularning orasida amir shayx Muhammad, Bayon Sulduziy, amir Oljoytu, amir Kayxisrav Xattaloni, amir Dovud Dulg’at, Amir Sorbug’oy Jaloyir, amir Joku Barlos, amir Zinda Chashm kabi amir hamda beklarning nomlari keltirilgan³.

Amir Temur va temuriylar davri tarixiga bag’ishlangan yana bir muhim asarlardan biri fransuz Lyusen Keren qalamiga mansub “Amir Temur saltanati” asaridir⁴. Ushbu asrda Amir Temurning harbiy siyosiy faoliyatiga oid juda qimmatli ma’lumotlar keltirilgan bo’lsa ham Amir Temur davlatining siyosiy elitasi haqida deyarli ma’lumot ketirilmagan. Lekin, ayrim o’rinlarda Amir Temurga taslim bo’lgan hamda uning xizmatiga o’tgan amirlar haqida ba’zi ma’lumotlarga guvoh bo’lishimiz mumkin. Ana shunday voqealardan biri XIV asrning 80-yillari boshlaridagi G’arbiy va Sharqiy Eron hududlarini zabt etish davomida Sabzavor va Seiston xo’jasi Ali Muayyadning o’z ixtiyoridagi yerlarni Amir Temur ixtiyoriga topshirib taslim

¹ Вамбер Х. “Бухоро ёхуд Мовороуннахр тарихи”. // Туркчадан таржима муаллифи ва сўз боши: Қаххор Т. – Т.: Ғофур Ғулом. 1990. – Б. 64. (Кейинги ўринларда - Ҳерман Вамбери “Бухоро ёхуд Мовороуннахр тарихи”).

² Ҳерман Вамбери “Бухоро ёхуд Мовороуннахр тарихи”. – Б. 26.

³ Ҳерман Вамбери “Бухоро ёхуд Мовороуннахр тарихи”. – Б. 24.

⁴ Керен Л. Амир Темур салтанати. // Франсуз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи: Б.Эрматов. Махсус муҳаррир: Х. Султон; Сўз боши: Луи Базен/. – Т.: Ма’навият. 1999. –Б. 224. (Кейинги ўринларда – Люсен Керен. Амир Темур салтанати.).

bo'lganligi, ulug' amirga sadoqatli xizmat qilganligi, oradan besh yil o'tib, og'ir janglarning birida halok bo'lganligi ta'kidlangan⁵.

Amir Temur tarixiga bag'ishangan yana bir qimmatli asarlardan biri Mixail Ignatev Ivanin qalamiga mansub "Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur" asaridir⁶. Ushbu asarda Amir Temurning harbiy mahorati, jangovarlik salohiyati hamda uning harbiy yurishlariga xolisona baho berilganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, asarda Amir Temur qo'shining tuzilishi, uning qismlari, davlatlarni boshib olish uchun qo'llagan hariy-siyosiy va ma'muriy chora-tadbirlari haqida hamda harbiy yurishlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, davlatning siyosiy elitasi haqida deyarli fikr yuritilmagan.

Turkiyada ham Amir Temur davlati va tarixiga qiziqish nihoyatda yuqori hisoblanadi. Bu davlatda temurshunoslikning taraqqiy etishiga o'z tadqiqotlari bilan katta hissa qo'shgan tadqiqotchilardan biri Ismoil Akaning "Buyuk Temur davlati" asarida ham Amir Temur haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan⁷. Ushbu asarda ham Amir Temurning siyosiy faoliyati hamda harbiy yurishlari haqida ko'plab fikr-mulohazalar ilgari surilgan. Shuningdek, 1375-yilda Movorunnahrning shimoli-sharqida joylashgan Xo'jand tevaragida yashayotgan jaloyiriylar yo'lboshchisi Odilshoh Bahrom va qipchoq ulug'i Sor Buqa kelishib Samarqandga qo'shin tortganligi, Samarqand hokimi Oq Buqa taslim bo'lmaslik uchun qattiq kurashganligi amirzoda Jahongirga taslim bo'lmasdan dastlab Dashti Qipchoqqa qochganligi, u yerdan ketib dulg'at amiri Qamariddindan panohtilaganligi, bu qilmishlar jazosini jaloyiriylar qabilasi tortganligi, qabila taqatilib boshqa beklarga bo'lib berilganligi, shuningdek besh yillik yurishlar davrida Bag'dod hukmdori jaloyiriy Sulton Ahmad qochganda Ibach O'g'lon hamda Usmon Bahodirga uni quvlash topshirilganligi, ular dushmani Karbaloga qadar ta'qib etib borganligi qisqa bayon qilingan⁸.

⁵ Люсен Керен. Амир Темур салтанати. – Б. 45.

⁶ Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. Таржим. А.Махкамов, сўз боши: Ю.Музаффар, Кичик мухаррир М.Набиева, Тех. Мухаррир Б.Барсукова, мусаххихлар М.Хосхимова, К.Зиёмухаммедова. –Т.: "Фан", 1994. –Б. 240. (Кейинги ўринларда – Иванин Икки буюк саркарда).

⁷ Ака, Исмоил. Буюк Темур давлати. Таржим. Т.Қахҳор. –Т.: Чўлпон, 1996. –Б. 152. (Кейинги ўринларда – Исмоил Ака. Буюк Темур давлати).

⁸ Исмоил Ака. Буюк Темур давлати. – Б. 10, 21.

1968-yilda akademik I.Mo'minovning “Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli”⁹ haqidagi risolasi nashr etilishi keng jamoatchilikning bu mavzuga qiziqishini avj oldirib yubordi. Bu ilm-fandagi oshkoralik to'liqini tarix fanida nisbatan erkin fikrlash, xolis ilmiy xulosalarni o'rta tashlash imkoniyatini tug'dirdi va mavzuga taalluqli sanoqli maqolalar e'lon qilindi.

Tadqiq etilayotgan mavzu doirasida yaratilgan adabiyotlar ichida Bo'riboy Ahmedovning yana bir “Amir Temurni yod etib”¹⁰ asari ham alohida o'rin kasb etadi. “Amir Temurni yod etib” to'plamiga kiritilgan “Temur va Qamariddin”¹¹ tadqiqotida Amir Temurning Mo'g'uliston (Chig'atoy ulusining sharqiy qismi) bilan XIV asrning 70-yillarda boshlangan siyosiy jarayonlar hamda shu siyosiy jarayonlar davrida Amir Temurni qo'llab-quvvatlagan amirlar va beklar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, Tug'luq Temur davrida vafot etgan ulusbegi Po'lodchining o'rniga amir Qamariddinni emas amir Xudoydodni tayinlanishi amir Qamariddinda norozilik kayfiyatini yuzaga keltiradi. Ilyosxo'ja davrida esa dulg'at amirlari bilan xon o'rtasidagi munosabatlar keskinlashadi. 1367-yilda esa amirlar xonga qarshi ochiq kurash yo'liga o'tadilar. Mamlakatdagi beqaror vaziyatdan amir Qamariddin ustalik bilan foydalanib, 1369-yilda Ilyosxo'jani o'ldirtirib mamlakatda hokimiyatni o'z qo'liga oladi. Amir Qamariddinni asosiy maqsadlaridan biri Chig'atoy ulusini avvalgi hududlarini qayta tiklash edi. Mana shu maqsad uni Amir Temur va amir Qamariddin o'rtasida 1370-1389-yillarda katta urushlar yuz berishiga sabab bo'ladi. Chunki, Amir Temur ham Chig'atoy ulusini tiklashni maqsad qilgan edi. Shuningdek, “Amir Temurni yod etib” to'plamiga kiritilgan “Mo'g'uliston XV asrda. Chig'atoylar bilan temuriylar munosabati” tadqiqotida ham mavzuga aloqador quyidagi mulohazani misol qilishimiz mumkin. 1389-yilda mo'g'ul xoni Xizirxo'jaxonning vafot etishi bilan chig'atoylarning yana o'zaro taxt uchun kurashlari kuchayganligi, bunday holat marhum xonning to'rt o'g'li Sham'i Jahon, Muhammad O'g'lon, Sherali o'g'lon va

⁹ Мўминов И.М. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли ёзма манбалар маълумотлари асосида. – Т.: 1968.

¹⁰ Аҳмедов Б. Мўғулистон XV асрда. Чигатойлар билан темурийлар муносабати. // Амир Темурни ёд этиб. Т.: Ўзбекистон. 1996. – Б. 336-337. (Кейинги ўринларда – Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб).

¹¹ Аҳмедов Б. Темур ва Қамариддин. // Амир Темурни ёд этиб. Т.: Ўзбекистон. 1996. – Б. 325-326.

Shoh Jahon o'g'lonlar o'rtasida kechganligi, bundan Farg'onani idora qilib turgan Amir Temurning o'g'li Umarshayx mizoning farzandi Mirzo Iskandar foydalanib, Andijon lashkari va amirlaridan Pirmuhammad Tag'oy Bug'o barlos, Nurak barlos, Bayon Temur bekchiklarni olib, Koshg'ar ustiga yurish qilgan. Buni eshitib, Mog'uliston sarhadida qo'shin bilan turgan Berdibek, Hudaydod Husayniy, Shamsiddin Abbos, Dodmalik barlos, Siddiq tobon kabi amirlar ham harakatga kelgan.

Amir Temur davri tarixshunosligi bo'yicha qimmatli ilmiy tadqiqotlardan biri Bo'riboy Ahmedovning Amir Temurning hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bag'ishlangan "Sohibqiron Temur" asaridir¹². Ushbu asarda asosan, Amir Temurning harbiy-siyosiy faoliyati, markazlashgan davlat tashkil etish yo'lidagi mashaqqatlari, amir Husayn bilan o'zaro munosabatlari, markazlashgan davlat tashkil etgandan keyin o'z davlati sarhadlarini mustahkamlash yo'lida amalga oshirgan jangu jadallari, mamlakatda ilm-fan hamda madaniyat homiysi sifatida amalga oshirgan ishlari haqida fikr-mulohazalar ilgari surilgan. Shuningdek, ushbu risolada Amir Temurning markazlashgan davlat tashkil etish uchun amalga oshirgan harbiy yurishlarida ishtirok etgan amir va beklar hususida ba'zi ma'lumotlar uchrab turadi. Xususan, Amir Temurning ashaddiy raqibi amir Husaynga qarshi Balx tomon yurush qilganda qo'shinining ilg'or qismini Suyurg'atmish o'g'lon, Ali Muayyad hamda Husayn barloslar boshqarganligi, Uboj (Ayvoj) kechuvi oldida Qashqardan Joku barlos va Xuttalondan amir Kayxisrav qo'shini bilan kelib qo'shilganligi, daryoning nargi sohilida esa amir Zinda Chashm Shibirg'on lashkari bilan, shuningdek, Xulumdagi hazoralar va Badaxshon podshoohi Shoh Mahmud ham Amir Temur qo'shiniga qo'shilganligi keltirilgan¹³.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan e'tiboran birinchi prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi va say-harakati bilan ko'plab tarixiy qadamjolarimiz, muqaddas maskanlarimiz qayta ta'mirlandi. Tarixiy xotiramiz asl holicha yoritila boshlandi.

¹² Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур (Ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолияти). Мухаррирлар И.Зоир, О.Овчинникова. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1996. –Б. 136. (Кейинги ўринларда – Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур).

¹³ Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур. – Б. 13-14.

Shonli davlatchiligimiz tarixida o'zining munosib o'rniga hamda nomiga ega bo'lgan buyuk ajdodlarimizning qutlug' nomlari haqiqat va adolat nuqtai nazaridan tilga olina boshlandi.

Xususan, Sohibqiron Amir Temur shaxsiyatiga bu davrda alohida e'tibor qaratildi. 1996-yilda nafaqat O'zbekiston miqiyosida, balki dunyo hamjamiyati bilan hamkorlikda buyuk sarkarda hamda davlat arbobi Amir Temur tavalludining 660 yillik qutlug' sanasi dunyo miqyosda keng nisonlandi. Ushbu sana munosabat bilan shu yil va undan keying yillarda jahon miqyosida xaqaro ilmiy konferensiyalari tashkil etildi va bu jarayon bugungi kunda ham izchil davom ettirib kelinmoqda. "Amir Temur va inson manfaatlari" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari asosida 1998-yil Toshkentda nashr etilgan "Amir temur saboqlari"¹⁴ to'plamida ham Amir Temur haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu to'plamning A.Juzjoniy tomonidan taqdim etilgan "Adolatga tayangan tuzum"¹⁵ ma'ruzasida Amir Temur o'z davlatini boshqarishda adolat mezonlarini oldingi o'rinlarga qo'yganligi turli misollar orqali yoritib berilgan. Ushbu maqolani tadqiqotimiz mavzusiga aloqadorligi kam bo'lsada, lekin bugungi kun uchun eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Maqolada ketirilishicha Amir Temur yoshligidanoq zo'ravonlik va zo'ravonlarga qarshi kurash boshlab, jamiyatda adolatli adolatli asosda ish olib borish tuyg'ulari bilan o'sdi va kamolot darajasiga ko'tarildi. Adolatga ishonish Amir Temur uchun iymon darajasiga ko'tarilgan edi.

Ma'lumki, Amir Temur fiqh ilmini chuqur bilgan kishi edi. Sultoniyalik Uskufiyning yozishcha, bu sohada u yuksak darajaga ko'tarilib, fatvo berish, ya'ni qonuniy hukm chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan odam edi¹⁶.

¹⁴ Amir Temur saboqlari: "Amir Temur va inson manfaatlari" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. (Toshkent, 1997-yil) // Ta'hir xay'at: B.Axmedov, X.Boboev, N.Xabibullaev/. – T.: "Sharq", 1998.

¹⁵ Amir Temur saboqlari: "Amir Temur va inson manfaatlari" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. (Toshkent, 1997-yil) // A.Juzjoniy "Adolatga tayanган tuzum". Ta'hir xay'at: B.Axmedov, X.Boboev, N.Xabibullaev. – T.: "Sharq", 1998. – B. 26-28. (Keyingi urinlarda – A.Juzjoniy "Adolatga tayanган tuzum").

¹⁶ A.Juzjoniy "Adolatga tayanган tuzum". – B. 26-27.

Shariat va davlat qonunlariga, shuningdek, urf qonunlariga bo'ysunish Amir Temur davlatida hukumat tizimining asosi bo'lib, barcha davlat idoralari, ayniqsa, harbiy sohalar uchun unga rioya qilish majburiy hisoblangan.

Bugungi kunda adolat mezonlariga rioya qilish, adolat tamoyillarini mahkam tutish hamda jamiyatda adolatli siyosatni amalga oshirish bugungi kunning ham eng muhim masalalaridan hisoblanadi.

Ushbu to'plamdan o'rin olgan ma'ruzalardan biri "Amir Temur saltanati davlat tuzilishi masalasiga doir"¹⁷. Bu ma'ruzada Amir Temur saltanatining davlat tuzilishi masalalariga oid qizqarli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Amir Temur saltanatida vazirlar katta rol o'ynaganliklari, xattoki, "Temur tuzuklari"da vazirlarning xizmat qilish tuzugiga alohida e'tabor berilganligi ta'kidlanadi. Undagi keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, saltanatning markaziy mamuriyatini bosh vazir – devonbegi boshliq yetti boshqargan.

Tadqiqotimizga ta'luqli jihati shundaki, ushbu ma'ruzada Fasih Xavofiyning "Mujmali Fasihiy" asaridan vazirlar haqida bir qancha misollar keltirilgan. Xususan, 804 (1401-1402) yil Amir Temur Xoja Shamsiddin Muhammad ibn Xoja Ali ibn Nizomuddin Yahyo Simmoniyni vazir qilib tayinlab, Xurosonga jo'natganligi va u Hirotga kelganligi keltirilgan¹⁸.

Mustaqilik yillarida Amir Temur va temuriylar davriga qiziqish har qachongidan ham ortib, ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ana shunday ilmiy tadqiqotlardan biri Bahriddin Usmonovning "Farg'ona vodiysi Amir Temur va temuriylar davrida"¹⁹ monografiyasi hisoblanadi. Ushbu monografiya Amir Temur davlati tashkil topish arafasida Farg'onadagi siyosiy vaziyat, vodiyning ushbu davlat

¹⁷ Amir Temur saboklari: "Amir Temur va inson manfaatlari" mavzusida ўtkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. (Toшлент, 1997-йил) // Д.Юсупова "Амир Темур салтанати давлат тузилиши масаласига доир". Таҳрир ҳайъат: Б.Аҳмедов, Ҳ.Бобоев, Н.Ҳабибуллаев. – Т.: "Шарқ", 1998. – Б. 29-33. (Кейинги ўринларда – Д.Юсупова "Амир Темур салтанати давлат тузилиши масаласига доир").

¹⁸ Д.Юсупова "Амир Темур салтанати давлат тузилиши масаласига доир". – Б. 31.

¹⁹ Баҳриддин Усмонов. Фарғона водийси Амир Темур ва Темурийлар даврида. Монография; илмий насі; крилл ёзувида; Б.Усмонов. Фарғона: "Фарғона", 2019. – 288 б.

tarkibiga kiritilishi, bu jarayonda Umarshayx va Iskandar mirzolarining o'rne kabi masalalar tadqiq etilgan.

Ushbu davr tarixshunosligiga oid yana bir qimmatli asarlardan biri Ubaydulla Uvatovning "Sohibqiron arab muarrixlari nigohida"²⁰ risolasidir. Ushbu kitobda asosan, arab, misrlik, suriyalik olimlarning Amir Temur haqida fikrlari o'rin olgan.

Amir Temur va temuriylar tarixshunosligiga oid yana bir nodir asarlardan biri Turg'un Fayziyevning "Temuriylar shajarasi"²¹ asaridir. Ushbu asarda Amir Temurdan Zahiriddin Muhammad Boburgacha temuriy hukmdorlar haqida tarixiy manbalar asosida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, asarda Amir Temur davrida Movorounnahr siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ayrim amir hamda beklar hususida ham ayrim ma'lumotlar uchraydi.

Omonulla Bo'riyevning "Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo"²² risolasi ham o'rgalinayotgan davr uchun qimmatli asarlardan hisoblanadi. Ushbu asarda o'sha davrga ta'luqli manbalar asosida temuriylar davlatining ma'muriy-hududiy tuzilishi, xalqaro aloqalari, yozma manbalarda qayd etilgan joy nomlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Hamidulla Dadaboyevning "Amir Temurning harbiy mahorati"²³ asari ham Amir Temur tarixshunosligining muhim manbalaridan hisonlanadi. Ushbu risola Amir Temurnig sarkardalik iste'dodi, Sohobqironning hayoti haqidagi tarixiy-ilmiy asarlarda keltirilgan hujjatli materiallarga asoslangan.

Xulosa shuki, birinchi paragrafida tadqiq etilayotgan muammoning manbaviy asosi Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Muiziddin Natanziy, Fasih Xavofiy, G'iyosiddin Ali, Ibn Arabshohhlarning asarlari asosida tahlil qilingan. Ikkinchi paragrafda esa Amir Temur va temuriylar davri tarixiga bag'ishlangan asarlarda siyosiy elita tarkibi va uning shklanishiga ta'sir etgan omillar qay darajada

²⁰ Уватов У. СохобкIRON араб муаррихлари нигоҳида. Т.: "Шарк", 1997. – 160 б.

²¹ Файзиев Т. Темурийлар шажараси. Т.: "Ёзувчи", 1995. – 350 б.

²² Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. (тарихий-географик лавҳалар) // Мас'ул мухаррир; А. Ёринбоев/. Т.: "Ўзбекистон", 1997. – 186 б.

²³ Дадабоев Ҳ. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. / Мас'ул мухаррир А.Қаюмов/. Т.: "Ёзувчи", 1996. – 96 б.

o'rganilganligi ko'rib chiqilgan. Ushbu muammoni o'rganish uchun tarixiy manbalardan yetarlicha ma'lumotlarning mavjudligi, lekin tarixshunoslikda mazkur masalaga e'tibor qaratilmaganligi o'rganilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ака, Исмоил. Буюк Темур давлати. Таржим. Т.Қаҳҳор. – Т.: Чўлпон, 1996. – 152 б.
2. Аҳмедов Б, Бобоев.Ҳ, Ҳабибуллаев.Н. Амир Темур сабоқлари: “Амир Темур ва инсон манфаатлари” мавзусида ўтказилган халқаро илмий конференция материаллари. (Тошлент, 1997-йил) –Т.:”Шарқ”, 1998.
3. Аҳмедов Б. Мўғулистон XV асрда. Чигатоийлар билан темурийлар муносабати. // Амир Темурни ёд этиб. –Т.: Ўзбекистон. 1996.
4. Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур (Ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолияти). Мухаррирлар И.Зоир, О.Овчинникова. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1996. –Б. 136.
5. Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур: (Ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолияти). – Т.: А.Қодирий. 1996. – 136 б.
6. Аҳмедов Б. Темур ва Қамариддин. // Амир Темурни ёд этиб. –Т.: Ўзбекистон. 1996. – Б. 325-326.
7. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Т.: Ўқитувчи. 2001. – 352 б.
8. Аҳмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлар (био-библиографик маълумотнома). Нашрга тайёрловчилар; Баҳтиёр Қосимов, т.ф.н. Аҳмедов.М. Тарихшунослар ва тарих муаллимлари учун қўлланма. – Т.: “Чўлпон”, 2003. –110 б.
9. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. (тарихий-географик лавҳалар) //Масъул муҳаррир; А.Ўринбоев/. –Т: ”Ўзбекистон”, 1997. – 186 б.
10. Вамбер Ҳ. “Бухоро ёхуд Мовороуннаҳр тарихи”. // Туркчадан таржима муаллифи ва сўз боши: Қаҳҳор Т. –Т.: Ғофур Ғулом. 1990. – 64 б.

11. Дадабоев Ҳ. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. / Мас’ул муҳаррир А.Қаюмов/. –Т.:”Ёзувчи”, 1996. – 96 б.
12. Жузжоний А “Адолатга таянган тузум”. Амир Темур сабоқлари: “Амир Темур ва инсон манфаатлари” мавзусида ўтказилган халқаро илмий конференция материаллари. (Тошлент, 1997-йил) // Таҳрир хайъат: Б.Аҳмедов, Ҳ.Бобоев, Н.Ҳабибуллаев. –Т.:”Шарқ”, 1998. – Б. 26-28.
13. Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. Таржим. А.Маҳкамов, сўз боши: Ю.Музаффар, Кичик муҳаррир М.Набиева, Тех. Мухаррир Б.Барсукова, мусахҳиҳлар М.Ҳосҳимова, К.Зиёмуҳаммедова. –Т.: “Фан”, 1994.
14. Кароматов Ҳ.. Амир Темур жаҳон тарихида. Муаллифлар жамоаси: С.Саиддосимов (раҳбар), А.Аҳмедов, Б.Аҳмедов ва бошқ. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи наشري – Т.: Шарқ, 2001. – 304 б.
15. Керен Л. Амир Темур салтанати. // Франсуз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи: Б.Эрматов. Махсус муҳаррир: Х. Султон; Сўз боши: Луи Базен/. – Т.: Ма’навият. 1999.
16. Мўминов И.М. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли ёзма манбалар маълумотлари асосида. –Т.: 1968.
17. Уватов У. Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида. –Т.:”Шарқ”, 1997. – 160 б.
18. Усмонов Б. Амир Темур давлати (сиёсий ва ҳарбий тарих масалалари). // ўқув-услубий қўлланма. –Т.: “Адабиёт учқунлари”. 2016. –124 б.
19. Усмонов Б. Фарғона водийси Амир Темур ва Темурийлар даврида. Монография; илмий насі; қрилл ёзувида; Б.Усмонов. Фарғона: “Фарғона”, 2019. – 288 б.
20. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. –Т.:”Ёзувчи”, 1995. – 350 б.
- Юсупова Д. “Амир Темур салтанати давлат тузилиши масаласига доир”.Амир Темур сабоқлари: “Амир Темур ва инсон манфаатлари” мавзусида ўтказилган

халқаро илмий конференция материаллари. (Тошлент, 1997-йил) //Тахрир
хайъат: Б.Ахмедов, Ҳ.Бобоев, Н.Ҳабибуллаев. –Т.:”Шарқ”, 1998. – Б. 29-33.